

## SHAHAR AGLOMERASIYALARINING VUJUDGA KELISH VA RIVOJLANISH YO‘LLARI

*Ilmiy raxbar, arx.f.n.dotsent- A.B.Balgayev*

*Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi magistranti-Shamiyev Jahongir*

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada shahar aglomeratsiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, aglomeratsiyaning manbai va uning asosiy jarayonlarining mohiyati tasvirlangan. Bunda shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirishda tartibni tiklashning muhim ijtimoiy va ekologik jihatlari tahlil qilinadi.*

**Аннотация.** *В данной статье описывается возникновение и развитие городской агломерации, источник агломерации и сущность ее основных процессов. В нем анализируются важные социальные и экологические аспекты наведения порядка в развитии городских агломераций.*

**Annotation.** *This article describes the emergence and development of urban agglomeration, the source of agglomeration and the essence of its main processes. It analyzes important social and environmental aspects of restoring order in the development of urban agglomerations.*

**Kalit so'zlar:** *Aglomeratsiyalar, yirik markazlar, urbanizatsiya, iqtisodiy geografiya, hududiy rivojlanish, ijtimoiy va ekologik jihatlari, mintaqaviy boshqaruv.*

**Ключевые слова:** *агломерации, крупные центры, урбанизация, экономическая география, территориальное развитие, социальные и экологические аспекты, региональное управление.*

**Keywords:** *agglomerations, large centers, urbanization, economic geography, territorial development, social and environmental aspects, regional management.*

**Kirish.** Shaharlar aglomeratsiyasi – yirik markazlar atrofida hosil bo‘layotgan shaharlar va qishloq aholi punktlarining birlashmasi hisoblanadi. Ular odamlarning hayot tarzini chuqur o‘zgartiradigan shaharlashishning haqiqiy manbaini, uning asosiy

jarayonlarining mohiyatini o‘zida aks ettiradi. Butun jahonda shaharlar aglomerasiyasi taraqqiyotida ma’lum bir tartibni vujudga keltirish juda muhim iqtisodiy, sosial va ekologik vazifa sifatida qaraladi. Shaharlar qurilishidagi, tumanlarning rejalashtirilishidagi, iqtisodiy geografiyadagi, regional iqtisoddagi va sosiologiyadagi aglomerasiya muammosiga juda katta e’tibor qaratilayotganligini shu bilan izohlash mumkin. Aglomerasiyaning shakllanishi – xalq xo‘jaligining hududiy va tarmoqlar bo‘yicha taraqqiyoti tomonidan stimullanib turadigan ob’ektiv jarayon hisoblanadi. Aholining haddan tashqari ko‘p bir joyda to‘rejaib olishi va ishlab chiqarishning konsentriyalashuvi, hududni rejalashtirishdagi tartibsizlik atrof – muhitning va odamlar yashash sharoitining sezilarli darajada yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Shuning uchun aglomerasiyani boshqarish o‘ta muhim jarayon hisoblanadi. Bu nafaqat uning taraqqiyotining salbiy oqibatlarini bartaraf etishga, balki, sezilarli darajada sosial, iqtisodiy va ekologik effektlarga erishish uchun shart-sharoit yaratish uchun ham muhim hisoblanadi.

**Materiallar va usullar.**“Aglomerasiya” jahon ilmiy adabiyotidagi o‘zaro farqlar bu hodisaning murakkabligini, va u yoki bu mamlakatning xususiyatlarini yaqqol aks ettiradi. Agar sobiq sovet geografik va shaharsozlik fanida aglomerasiyani shahar va qishloq joylashishlari- ning hudud jihatdan yaqinlashgan, ammo fazoviy ajralishlarga ega bo‘lgan guruhlanishi tushunilgan bo‘lsa, g‘arb tadqiqodchilarining fikricha, u qurilgan hududlarning birlashishi natijasida hosil bo‘lgan uzluksiz maskan hisoblanadi.

Shahar aglomerasiyasi – shahar va qishloq aholi punktlarining ixcham hududiy guruhlashgan to‘plammasi bo‘lib, u ko‘pqirrali jadallashgan – ishlab chiqarish, kommunal-xo‘jalik, mehnat, madaniy-maishiy, rekreasion hamda berilgan hududni va uning resurslarini birgalikda foydalanish aloqalari bilan birlashgan murakkab o‘zgaruvchan lokal tizim hisoblanadi.

Alohida ta’kidlash muhimki, shahar aglomerasiyasi – bu nafaqat aholi punktlari yig‘indisi, balki ular orasidagi fazo ham hisoblanadi. Bu, xuddi shahar va qishloq aholi punktlarining shahar atrofi hududlari bilan birlashgan zich tarmog‘idek bo‘lib, yuqori darajada shaharlashgan hudud hisoblanadi. Aglomerasiya, bu turli tipdagi joylashuvlarning birlashmasi, yirik markazning va ko‘p sondagi kichik hamda o‘rta

shaharlarning, qo'rg'onlarning (poselkalarining) va qishloq joylarining birlashib ketishidir. Kichik shaharlar yirik markazning bevosita ta'sir doirasiga kirib, aglomerasiyaning tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Ammo joylashishning va ishlab chiqarishning rejali ravishda rivojlanishida ular aglomerasiya ichida yuqolib ketishmaydi. Aglomerasiya shaharni inkor etmaydi, ammo uni o'zgartiradi. Aglomerasiyalarning tarkibiga u sosial va iqtisodiy jihatdan yangi, yanada murakkabroq va samaraliroq hayotni olib kiradi. Aglomerasiyani hosil qiluvchi shaharlar sistemaning bir qismi sifatida vujudga kelishi yuz beradi. Aglomerasiyalarda shahar va qishloq joylari bir – biriga birlashib, jips bog'lanib ketishadi. Umuman olganda shahar va qishloq joylari orasidagi chegara tarixan o'zgaruvchan, harakatlanuvchan va shartli hisoblanadi. Aglomerasiyalarda esa bu yaqqol ko'rinib turadi. Bunday qishloq joylarda o'z funksiyasi va hayot tarzi bo'yicha yarim shaharlik aholilar juda ko'p. Aglomerasiyalar sharti nafaqat shahar va qishloqning bir-biriga muvaffaqiyatli yaqinlashishiga, ularning integratsiyasiga ko'maklashadi, balki, umuman turli joylarning muammolarini, ularning o'zaro hamkorligi va yordami asosida echishda sharoit yaratadi. Shaharlarning chegaralangan hududi doirasida real o'zaro bog'langan echimlarga yo'l ochadi.

Agglomerasiyani, uning yuqori intensivlikka va xilma-xillikka ega bo'lgan ichki aloqalari birlashtiradi va unga birlik hamda butunlik beradi. Aglomerasiya uchun aholi bo'yicha aloqalar – mayatnikli, mehnat bo'yicha, madaniy-maishiy va rekreasion qatnashlar eng xarakterli hisoblanadi. O'zaro bog'liq joylashish hududlari bo'yicha aglomerasiyaning xususiyatlari aholining yuqori harakatlanuvchanligidan dalolat beruvchi mayatnikli migrasiyaning ko'lami va intensivligida namoyon bo'ladi. Maksimum soatlarida harakatning ortishi va sutka davomida ko'p harakatli yo'nalishlarning almashinuvi (ertalab markazga yo'nalgan va kechqurun markazdan tashqariga yo'nalgan) bu harakatga olib kelish va olib ketish xarakterini beradi. Bu jarayonda o'nlab va yuzlab kishilar ishtirok etadi.

**Muhokama.** Agar butun mamlakatning yoki uning yirik bir qismining aglomerasiyalarining majmui o'rganilayotgan bo'lsa, u vaqtda aglomerasiyalar chegaralarini aniqlashning oddiy transport qatnovi imkoniyati ko'rsatkichiga asoslangan bilvosita metod yordamida ish ko'riladi. Shahar aglomerasiyalari o'z rivojlanishi

davomida joylashtirish oldida turadigan ikki asosiy vazifaning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan echimlari uchun tayyorgarlik ko‘radi: odamlarning yashashi uchun atrof muhitni to‘laqonli yaxshilashni ham o‘z ichiga olgan holda qulay sharoitni yaratish va ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatlarining rivojlanishi va ishlashi uchun qulay sharoit ta‘minlash. Sobiq ittifoqda yirik shahar aglomerasiyalari zamonaviy va perspektiv joylashishning asosiy formasi sifatida yuqori darajadagi dinamikani ko‘rsatadi. 20 yillikda (1959-1979) uning shahar aholisining soni ikki martadan ko‘proqqa ortdi (mamlakatning shahar aholisining soni 63,6 % ga ortdi). Aglomerasiya sharoiti yangi shaharlarning barpo bo‘lishiga olib keldiki, ularning soni ham ikki martadan ko‘proqqa ortdi. Asrimizning oxirgi chorakligida barpo bo‘lgan yangi shaharlarning asosiy ko‘pchilik qismi yirik markazlar atrofida joylashdi. Shaharlar aglomerasiyalari shakllanishining borishi ularning joylashishdagi va aholining umumiy sonida ularning ulushining sezilarli ortishi to‘g‘risida dalolat beradi. 1979 yilda faqat yirik shahar aglomerasiyalarida mamlakat shahar aholisining deyarli 60 % va shaharlarining 30 % joylashgan. Ularning rivojlanish dinamikasi haqida jadvalda keltirilgan raqamlar bo‘yicha xulosa chiqarish mumkin (1-jadval) [3].

MDH yirik shahar aglomerasiyalarining o‘rta dinamikasi

(G.M. Lappo bo‘yicha).

Jadval-1.

Yillar	1959 y.	1970 y.	1979 y.
Aglomerasiyalar soni	40	61	80
Ulardagi shahar tipidagi joylarning soni	921	1330	1658
Shu jumladan shaharlar soni	320	475	615
Aglomerasiyalarda shahar aholisining soni (mln. kishi)	44.9	71.9	96.2
Aglomerasiyalar umumiy aholi sonida yo‘ldosh shaharlar hududining ulushi (%)	29.9	30.0	30.4

Aglomerasiyani hozirgi vaqtdagi va perspektiv joylashishning asosiy formasi sifatida tan olish unga joylashishning barcha murakkab va ko‘p qirrali muammolarining hal etuvchisi deb qarashni bildirmaydi. Aglomerasiyalarning shakllanishi tanlab

olinadigan jarayon bo‘lib, uni hamma joyga ham tadbiiq etib bo‘lavermaydi. Ko‘pchilik keng hududlar aglomerasiyalarning rivojlanishi uchun umuman sharoitga ega emas.

**Xulosa.** Xulosa qilib aglomerasiya hududlarning konsentrsiyalangan rivojlanishi uchun qulay sharoitga ega bo‘lgan joylardagina hosil bo‘ladi. Bunday erlarda joylashish tarmog‘i sistemaga aylanadi. V.V.Pokshishevskiy “shahar joylarning hududiy tarmog‘i” haqida gapirganda ularning guruhli tarmoqlariga, shu jumladan “yorqin ko‘rinib turgan aglomerasion xarakterga” e‘tibor qaratadi va “oxirgi formalar shahar sistemalari dir” deb xulosa qiladi [3]. Shunday qilib, aglomerasiyalarni faqatgina lokal darajalarda qarash ularning ko‘pchilik xislatlarini ochib berishi mumkin, ammo ularning xo‘jalikni hududiy va joylashishidagi rolini to‘lig‘icha yoritishga imkon bermaydi. Aglomerasiyalarni regional darajada qarash ularning yangi qirralarini ochib beradi - ular regional sosial-iqtisodiy sistemaning yadrosi sifatida yuzaga chiqadi, rayon tashkil etuvchi va rayon hosil qiluvchi vazifasidagi rolni bajaradi. Mamlakat miqyosidagi darajada esa aglomerasiyalar rayonlararo aloqalarning tugunlari sifatida, joylashishning tayanch karkasining muhim tugun elementlari sifatida yuzaga chiqadi. Aglomerasiyalar joylashishning o‘ta dinamik elementi sifatida yaqin va uzoq hududlar bilan faol o‘zaro ta’sirda bo‘ladi va shu bilan joylashishda o‘ziga xos “aglomerasion rezonans” hosil bo‘lishiga undaydi.

#### Литература

1. Мирзаев М.К. Районное планирование и территориальное расселение. - Учебник - Т.: «Наука и техника», 2014.
2. Исамухамедова Д.У. , Мирзаев М.К. Теория современного городского планирования. - Учебное пособие - Т.: ТАКИ, 2015.
- 3.Lappo G.M. Goroda na puti v budushee .- М.: Izdatelstvo «Misl», 1987.
4. Исамухамедова Д.У. , Содикова М.А. , Мирзаев М.К. «Градостроительное проектирование» – Учебное пособие – Т.: ТАКИ, 2015.
4. Gayratovna, I. D., & Lola, K. (2022). SAMARKAND HISTORY AND ARCHITECTURE OF HISTORIC COURTYARD HOUSES.